

**YORQIN TUROPOV**

**QADIMGI YUNONISTON VA RIM MADANIYATI**

(Uslubiy qo'llanma)

**Toshkent 2013**

Toshkent 2013

UDK-

---

Turoпов Yo. Qadimgi Yunoniston va Rim madaniyati; muharrir B.Ochilova. – Toshkent: “ ”, 2013. 92 b.

**Mas’ul muharrir:** falsafa fanlari doktori, prof.B.Ochilova

**Taqrizchilar:** falsafa fanlari nomzodi, dots. F.Mamatqulov

falsafa fanlari nomzodi, dots. M.Saidov

Uslubiy qo’llanma oliy ta’lim tizimi barcha yo’nalishlari 1-ijtimoiy-gumanitar fanlar bloki o’quv adabiyotlari turkumiga kiradi va namunaviy o’quv dasturi mazmuniga mos.Uslubiy qo’llanmada Qadimgi yunon va Rim madaniyatining shakllanishi, tarixiy davrlari, ularning o’ziga xosligi va madaniyatning asosiy yo’nalishlari, ularning mazmuni va shakllari, qadimgi yunon madaniyatining jahon madaniyati rivojlanishidagi o’rni va ahakmiyati yoritib berilgan.

A.Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat pedagogika instituti o’quv metodik kengashining 2013 yil 4 iyulъ 9-son majlisida muhokama yetildi va chop yetishga tavsiya etildi.

## **KIRISH**

Ushbu o'quv-uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010 yil 21 sentyabrdagi 396 sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan madaniyatshunoslik fanining namunaviy dasturi asosida tayyorlangan va oliy o'quv yurtlarining talabalariga mo'ljallangan bo'lib, unda jahon madaniyati va sivilizasiyasining shakllanishi va rivojlanishida muhim bir davr, bosqich bo'lgan antik madaniyatning tarixi, yo'nalishlari, mohiyati va o'ziga xosligi haqida fikr yuritiladi. Madaniyatshunoslik faninng bu muhim mavzusi adabiyotlarda kam yoritilgan.

Antik madaniyat o'z bag'riga insoniyat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, kulolchilik, arxitektura, san'at, adabiyot, teatr, musiqa, falsafa, axloq, din, siyosat kabi yana bir qancha sohalarni qamrab oladiki, bularning jami madaniyat tushunchasini tashkil etadi.

Insoniyat o'zining ibtidosidan boshlab hozirgi zamongacha umuminsoniy madaniyatni turli milliy shakllarda rivojlantirib kelmoqda.

Antik madaniyat o'z davrining eng yuksak va insoniyat madaniy taraqqiyotining muhim xalqasini tashkil etadi. Uni o'rganish esa umuminsoniy madaniyatning shakllanishi, rivojlanishi, yuksalishi va insoniyat uchun ahamiyatini tushinib yetishga imkon beradi.

## **MA'RUZA ANNOTASIYASI**

### **(DASTUR)**

Qadimgi Yunoniston madaniyati. Qadimgi Yunoniston madaniyatining besh davri: Egey yoki Krit - miken davri, Gomer davri madaniyati, Arxaik davr madaniyati, Klassik davr, Ellinistik davr. Ularning o'ziga xos xususiyatlari. Sharqdagi Ellinistik markazlar. Ellinistik madaniyatning qadimgi Rim madaniyatga ta'siri. Qadimgi Rim madaniyati. Qadimgi Rim madaniyatining uch davri: shohlik davri, respublika davri, imperiya davri madaniyatining mazmuni. Rim she'riyati. Rim teatr san'ati, haykaltaroshlik. Imperiya davrida Rim shaharlari. Imperiya davridagi shaharlarning farqli xususiyatlaridan biri kommunikasiya vositalarining-tosh ko'priklari, vodoprovodlar, kanalizasiyalarning borligi. Rimda fan va maorif.

### **MA'RUZA REJASI:**

1. Qadimgi yunon madaniyatini o'rganish bo'yicha manbalar. Qadimgi yunon madaniyati shakllanishiga tabiiy-geografik muhitning, ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy sharoitning ta'siri.
2. Qadimgi Yunoniston madaniyatining tarixiy davrlari, o'ziga xosligi va asosiy yo'nalishlari.
3. Qadimgi Rim madaniyati va uning mazmuni.

## TAYANCR MATNLAR

Antik madaniyat, mifologiya, folklor, Gomer, Troya, Gesiod, Zevs, Olimp xudolari, Olimpiya o'yinlari, teatr, Demokrit, Suqrot, Aflotun, Arastu, doriy, ioniy, korinf, Fidiy, Meron, Poliklet, Agora, Parfenon, akropol, demokratiya, Perklning "oltin asri", Aleksandr Makedonskiy, ellinizm, Arximed, Evklid, kosmopolitizm, koyne, xaos, Rim, Kapitoley, Romul va Rem, respublika, imperiya, tartar, terma, forum, triumfal arkalar, kolonna, sirk, kolizey, amfiteatr, tragediya, komediya, gladiator, Vergeliy, Gorasiy, Ovidiy, ritorika, Panteon.

## ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". Toshkent.: Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., O'zbekiston, 1998.
3. Abduraxmonov M., Raxmonov N. Madaniyatshunoslik. Universitet, Toshkent.: -2011y.
4. Abdullayev N. San'at tarixi. 2 tomlik. 1- tom, T., 1978 64-107 b
5. Alimuhamedov A., Antik adabiyot tarixi, T.. 1975.
6. Axmedova E, Gubaydullin R.. Kulturalogiya. Mirovaya kultura. Tashkent.: -2001 g. Akademiya xudojestv Uzbekistana.
7. Boynazarov F. Antik dunyo. T., 1989 y.
8. Vipper B.R. Iskustvo drevney Gretsii. M., 1972.
9. Gurevich P.S. Kulturologiya (Uch. posobiye). M., 1996.
10. Dmitreva N.A., Akimova L.I. Antichnaya iskusstvo. M. 1980.
11. Drevniye sivilizatsii. M, 1989g., S. 289-451.
12. Kulturologiya. M., "Znaniye". 1996 .
13. Nemirovskiy A.I., Istoriya drevnogo mira. Antichnost. M., "Vlados", 2000.
14. Problemi antichnoy kulturi. M., 1986 , s. 7-117
15. Sokolov G.I. Iskustvo drevnogo Rima. M., 1971 .
16. Sulaymonova F., Sharq va G'arb, T., 1998.
17. Tўxtasimov Э. М. Антик маданият. Маданиятшунослик фанидан ўтилажак икки соатлик маърузалар матни. Т., 2003.

### Elektron ta'lim resurslari:

1. [www. Ziyo net.uz](http://www.Ziyo.net.uz).
2. [www.bilim.uz](http://www.bilim.uz).
3. [www.philosophy.ru](http://www.philosophy.ru).

<b>2-mavzu</b>	<b>Antik madaniyat</b>
----------------	------------------------

### 1.1. MA'RUZANI OLIB BORIS TEXNOLOGIYASI

<i>Talabalar soni - 100 ta</i>	O'quv vaqti – 2 soat
<i>Mashg'ulot shakli -</i>	Mavzu bo'yicha vizuallashtirilgan - ma'ruza
<i>Ma'ruza rejasi</i>	<p>1. Qadimgi yunon madaniyatini o'rganish bo'yicha manbalar. Qadimgi yunon madaniyati shakllanishiga tabiiy-geografik muhitning, ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy sharoitning ta'siri.</p> <p>2. Qadimgi Yunoniston madaniyatining tarixiy davrlari, o'ziga xosligi va asosiy yo'nalishlari.</p> <p>3. Qadimgi Rim madaniyati va uning mazmuni.</p>
<b><i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i></b> Antik madaniyat mazmuni va shakllari, yunon-rim madaniyati tarixiy davrlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida tushuncha hosil qilish	
<b><i>Pedagogik vazifalar:</i></b>	<b><i>O'quv faoliyati natijalari</i></b>
Antik madaniyatni vujudga keltirgan tarixiy, tabiiy-geografik shart-sharoitlar va ijtimoiy-siyosiy omillar mohiyatini ochib beradi;	Antik madaniyat uni vujudga keltirgan obyektiv shart-sharoitlar va subyektiv omillar haqida bilimlar hosil qilinadi;
Qadimgi Yunoniston madaniyatining besh davri: Egey yoki Krit - miken davri, Gomer davri madaniyati, Arxaik davr madaniyati, Klassik davr, Ellinistik davr, ularning o'ziga xos xususiyatlari va Ellinistik madaniyatning qadimgi Rim madaniyatga ta'siri, Qadimgi Yunoniston moddiy va manaviy madaniyati, ularning mazmuni va shakllari haqida ma'lumot beradi;	Qadimgi Yunoniston madaniyatining besh davrlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari Qadimgi Yunoniston moddiy va manaviy madaniyati, ularning mazmuni va shakllari haqida tasavvurga ega bo'ladi;
Qadimgi Rim madaniyati, uning uch davri: shohlik davri, respublika davri, imperiya davri madaniyatining mazmuni tahlil etiladi;	Qadimgi Rim madaniyati, uning uch davri: shohlik davri, respublika davri, imperiya davri madaniyatining mazmuni va shakllarini, xususiyatlarini va ularning o'ziga xos tomonlarini aytib bera oladi;
<i>O'qitish usullari va texnikasi</i>	Ma'ruza, "Fikriy xujum", "Klaster" metodi, "Blisso'rov" uslubi, "FSMU" jadvali

<i>O'qitish vositalari</i>	Ma'ruza matni, slaydlar, proyektor
<i>O'qitish shakli</i>	Jamoa, guruh-guruh bo'lib ishlash
<i>O'qitish nazorati</i>	Kompyuter, proyektor mavjud auditoriyalar
<i>Manitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, debat savol-javob , reyting tizimi asosida baholash

### **Ma'ruzaning texnologik xaritasi**

Ish jarayonlari vaqti	Faoliyatning mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich Mavzuga kirish (20 minut)	1.1.Ma'ruzaning mavzusini e'lon qiladi, o'quv mashg'ulotining maqsadi va natijalarini tushuntiradi	Tinglaydi
	1.2. Mavzu bo'yicha ma'ruza mashg'ulotining tayanch iboralari va ma'ruza rejasiga izoh beradi. Mavzu yuzasidan blis-so'rov usulida ma'lum bo'lgan tushunchalarni faollashtiradi	Yozib oladi
	1.3. Mavzuni o'zlashtirishda foydalanish uchun zarur bo'lgan adabiyotlar ruyxati bilan tanishtiradi	Yozib oladi
2 – bosqich Asosiy bo'lim (50 minut)	2.1. O'quv mashg'ulotining birinchi qismi bo'yicha ma'ruza qiladi. Ma'ruza mashg'ulotini "Fikriy xujum" usuli bilan boshlaydi  (1-slayd). ( ma'ruza mavzusi yuzasidan nazorat savollarini beradi)	Tahlil qiladi
	2.2. Birinchi rejada berilgan "Qadimgi yunon madaniyatini o'rganish bo'yicha manbalar. Qadimgi yunon madaniyati shakllanishiga tabiiy-geografik muhitning, ijtimoiy-	Muayyan bilimlar o'zlashtiriladi

	<p>iqtisodiy va tarixiy sharoitning ta'siri.</p> <p>” mavzusini “G'isht” texnikasi orqali tushuntiradi. ( ma'ruza mavzusi yuzasidan nazorat savollarini beradi)</p> <p>Talabalarning fikrni umumlashtiradi</p>	
	<p>2.3. Qadimgi yunon va Rim madaniyatining mazmuni shakllari va tarkibiy tuzulishini jonlantiruvchi savollar bilan yoritiladi:</p> <p>1. Qadimgi Yunoniston madaniyatining tarixiy davrlari nechta?</p> <p>2. Qadimgi Yunoniston madaniyatining tarkibiy qismlarini aytib bering?</p> <p>3. Qadimgi Rim madaniyati va uning mazmuni yoriting? (8-9- slayd)</p> <p>4. Qadimgi Yunoniston falsafiy fikrining cho'qqisi bo'lgan Surot Aflotun Arastularning ijtimoiy-falsafiy fikrlarini qisqacha izohlaydi (6-slayd)</p> <p>( ma'ruza mavzusi yuzasidan nazorat savollarini beradi)</p>	<p>Mustaqil fikrga ega bo'ladi</p>
	<p>2.4. Mavzu yuzasidan ikkinchi va uchinchi savolni tushuntirishda talabalarni erkin bahs-munozaraga tortish maqsadida “FSMU” jadvalidan foydalangan holda 11- slayd topshirig'ini bajarishni taklif etadi</p>	<p>11-slayd topshirig'ini bajaradi</p>
<p>3- bosqich</p> <p>Yakuniy qism</p> <p>(10 minut)</p>	<p>3.1. Qadimgi yunon va Rim madaniyatining jahon madaniyati rivojlanishidagi ahamiyati, uning o'zidan oldingi va keyingi davrlar insoniyat madaniyati bilan bog'liqligi</p>	<p>Munosabat va mustaqil fikrlar bildiradi</p>

	to'g'risida yakuniy xulosa beradi.	
	3.2. Faol talabalarni rag'batlantiradi	Baholanadi

### MA'RUZA MAVZUSI YUZASIDAN NAZORAT SAVOLLARI

1. Yunoniston va Rim madaniyati qaysi madaniyatdan oziqlandilar?
2. Qadimgi Yunoniston madaniyati qanday davrlarga bo'lib o'rganiladi?
3. Qadimgi Yunon madaniyatiniig birinchi davrini Egey yoki Krit - Miken deb atalishining sababi nimada?
4. Gomer davri madaniyati asosan kimlarning asarlari asosida belgilanadi?
5. Qaysi davr yunon madaniyatida xudolar haqidagi miflar asosiy rol o'ynaydi?
6. Yunonlar kimni xudolar haqidagi tasavvurlarimizning ijodkori, deb baholagan edilar?
7. Qadimgi yunonlarning tasavvuricha, olam avvalida nimadan iborat bo'lgan?
8. Arxaik davrda yunon madaniyatining qanday shakllari paydo bo'ldi?
9. Arxaik davrdagi yunon adabiyotda qanday janrlar yetakchi rol o'ynadi?
10. Yunon tosh haykallari nechanchi asrda paydo bo'ldi?
11. Antik yunon falsafasiga kimlar asos soldilar?
12. Kimlar tragediya janriga asos soldilar?
13. Klassik davrda yunon teatr san'atining rivoji qaysi adiblarning ijodi bilan bog'liq edi?
14. Qaysi haykaltaroshlar klassik davr yunon haykaltaroshligiga asos soldilar?
15. "Ellinizm" atamasining ma'nosi nima?
16. Ellinizm davrida (mil. av. III-II asrlar) madaniyat xilma-xil bo'lib, asosan madaniyatning qaysi shakli taraqqiy etdi?
17. Ellinizm davrida qaysi olimlarning kashfiyotlari yuzaga keldi? Ellinizm davrida qanday yangi dunyoqarash falsafiy tus olib qaysi nom bilan mashhur bo'ldi?
18. Qadimgi Rim madaniyatining shakllanishiga qaysi madaniyatlar an'analari ta'sir ko'rsatdi?
19. Qadimgi Rim madaniyati nechta davrga bo'linadi?
20. Qadimgi Rimda ta'lim necha bosqichdan iborat edi?



## MA'RUZA MAVZUSI MATNIGA OID

### Kirish

Qadimgi Yunoniston va Rim madaniyatlari Yevropa sivilizasiyasining poydevoriga asos soldi. qadimgi Sharq madaniyati ta'sirida shakllangan bu madaniyat an'anaviy madaniyat taraqqiyoti davrining davomchisi va yakunlovchisi bo'ldi. qadimgi Yunonistonda shakllanib, keyinchalik yuksak bosqichga ko'tarilgan bu madaniyat er. avv. III asrda Rim madaniyati vujudga kelishiga katta ta'sir ko'rsatda va «Antik madaniyat» nomi bilan dunyo madaniyati tarixida o'chmas iz qoldirdi.

Antik madaniyatda san'at, mifologiya, din va boshqa ijtimoiy hodisalar ilk davrda qorishiq holatdagi ko'rinishga ega bo'lib, birinchi marta yaratildi, dunyoning boshqa joylarida bunday madaniyat hali yo'q edi. Antik madaniyat degan termin ana shu birinchi marta yaratilgan osori atiqalarga, yozma va og'zaki adabiyotga nisbatan qo'llanadi. Soddaroq aytsak, antik davr madaniyatning "tug'ilish" davri, ya'ni Yevropa madaniyatini paydo qilgan davrdir. Dunyoning boshqa hududlarida antik davrga oid madaniy yodgorliklar Aleksandr Makedonskiy yurishlaridan keyin paydo bo'ldi. Jumladan, O'rta Osiyodagi, xususan, O'zbekiston hududidagi "antik san'at" yoki ellinizm madaniyati degan termin aynan mil. avval. IV- III asrlardagi yodgorliklarga nisbatan qo'llanmoqda. Masalan, Yunonistondagi haykaltaroshlikning qadimgi O'zbekiston hududida paydo bo'lgani ana shu tarixiy jarayon bilan bog'lanadi.

Haykaltaroshlik tasviriy va amaliy san'atni, mifologiyani, folklorni, mafkurani ifoda etadi. Bu davrda tafakkurda ham o'zgarish yuz berdi.

Fikrlashda moddiy mavjud narsalarga nisbatan aqlda mavjud narsalar va tushunchalar asosiy o'rin egallay boshlaydi.

Ammo Yunoniston va Rim madaniyati bora - bora keskin ajralib, har biri o'z yo'lidan ketdi, mustaqil, bir - birini takrorlamaydigan oqimni shakllantirdilar. Yunoniston asosan, Eron, Kichik Osiyo, Afrika va Old Osiyo xalqlari madaniyati bilan uzviy aloqaga kirishdi. O'rta Osiyo misolida ham bu jarayonni kuzatish mumkin.

Aleksandr Makedonskiy (Iskandar) Eron saltanatini, buyuk Axmoniyar sulolasini bosib olgandan keyin (mil. aval. 330 - 327 y.) Yunon va Rim badiiy madaniyati O'rta Osiyoning azaliy madaniyatiga kuchli ta'sir etdi. O'zbekiston zaminida antik badiiy madaniyatning eng gullagan davri - mil. aval. 3, milodiy - 3 asrlardir<sup>1</sup>.

Rim madaniyati esa qadimiy Yevropa bilan munosabatni mustahkamladi. Vizantiya madaniyatida milodning IV - XV asrlarida antik Rim madaniyati izlarini ko'rish mumkin.

**1 - masala.** Antik madaniyat qadimgi davr madaniyatining eng yuksak bosqichi, eng sistemalisi bo'lib hisoblanadi. Bu yuksak madaniyat ham barcha madaniyatlar kabi umumjahon madaniyati shakllanishida bir muhim halqa bo'lib hisoblanadi. Qanchalik yuksak, oliymaqom, sistemali bo'lmasin u ham umuminsoniy ijod sarchashmalaridan bahramand bo'lgan va natijada o'z mazmuni, mohiyatini boyitgan holda uni yangi pog'onaga ko'targan.

Antik davrda yaratilgan qadimgi Yunon madaniyatining juda ko'p turlari hali hamon insoniyat aqlini lol qoldirib kelmokda, shuurini to'lqinlantirib, tafakkurini hayratga solib kelmoqda. Jaxon jamoatchiligini va ayniqsa sayyohlarni o'ziga ohanrabo kabi tortib kelmokda. Ijodkorlaru

---

<sup>1</sup> Қаранг: Г.А. Пугеченкова, Л.И.Ремпель. История искусств Узбекистана. М., 1965, 35-36-бетлар.

san'atkorlarga ilhom beruvchi, yangi fantaziyalarga undovchi quvvat manbai bo'lib xizmat qilmoqda...

Xo'sh, bu madaniyat asoslari qachon, qanday qilib shakllandi va rivojlandi? Uning mazmuni kanday, qanaqa yo'nalishlari bor? Bu madaniyatning yaratuvchilari kimlar? Uning jahon madaniyati tizimidagi o'rni qanday, qanaqa axamiyati bor? Biz quyida ushbu muammoni yoritishga harakat qilamiz.

Antik madaniyat tarixini qanday kilib, nimalarga tayanib va asoslanib o'rganish mumkin? Bunda bir necha manba mavjud.

Avvalo, o'sha davrda yaratilgan, hamon saqlanib kelayotgan moddiy va ashyoviy madaniyat elementlari. Ya'ni, arxitektura inshootlari, undagi bezak buyumlari, haykaltaroshlik va tasviriy san'at asarlari, maishiy asbob-anjomlardir.

**Ikkinchidan**, o'sha davrda yashab ijod etgan ma'naviy madaniyat asoslarini yaratgan mashhur yozuvchilar, dramaturglar (Esxil, Sofokl, Evripid, Aristofan, Siseron, Lukresiy, Gorasiy...) va ularning asarlaridir.

**Uchinchidan**, o'sha davrda yashab o'z davri mohiyatini asarlarida aks ettirgan mashhur tarixchilarning (Gomer, Gerodot, Fukidid, Plutarx, Strabon, Sezar) asarlaridir.

**To'rtinchidan**, o'sha davrda yashab ijod etgan, o'sha davr madaniyatini yaxshi bilgan, uning shakllanishining guvohi va ishtirokchisi bo'lgan mashhur donishmand - faylasuflarning, yirik olimlarning asarlaridir.

**Beshinchidan**, bizning davrimizda yashab, qadimgi Yunon va Rim madaniyatini chuqur o'rgangan mashhur zamondosh olimlarning asarlaridir. Bu asarlar esa kam emas va ularning mazmuni juda boydir.

Avvalo, "antika", "antik", iboralari haqida. Lotincha "antikvus" so'zidan olingan bo'lib, "qadimgi" degan ma'noni bildiradi. Lekin, bu so'z odatda qadimgi grek va rim tarixiga, madaniyatiga, san'atiga nisbatan qo'llaniladi va O'rta yer hamda Qora dengiz atrofidagi xalqlar o'tmishiga ham taalluqlidir. Yunonlardan ancha qadimiyroq bo'lgan Misr, Babil, Shumer, Midiya, Xind, Xitoy kabi xalqlar tarixi va madaniyatiga taalluqsizdir. Demak, antik davr, antik madaniyat faqat qadimgi Yunon va Rim bilan bog'liq bo'lib, eramizdan avvalgi III minginchi yillardan toki eramizning V asrlarigacha bo'lgan davrni va tarixni (shuningdek, madaniyatni ham) o'z ichiga oladi.

Endi "ellin" so'zi haqida. Greklar o'zlarini, o'z tillarida "ellinlar" deb, Gresiyani esa "ellada" deb ataydilar. Shunadn "ellin madaniyati", "ellinizm" degan tushunchalar paydo bo'lgan. Lekin tarixda «ellinizm madaniyati», deganda eramizdan avvalgi IV asr o'rtalaridan toki eramizdan avvalgi I asrning oxirlarigacha bo'lgan davr madaniyati va sivilizasiyasi tushuniladi. Shu ma'noda "ellinizm madaniyati" tushunchasi bilan, «antik madaniyat» tushunchasi bir xil va teng emas. Bu tushunchalar o'z ma'nosiga va o'ziga xoslikka egadirlar.

Eramizdan avvalgi III - ming yillikka kelib Yunonistonda bir necha qadimiy qabilalar yashagan edilar. O'sha davrda uning tabiati vageografik tuzilishi o'ziga xoslikka ega edi. Dengiz bo'yida joylashganligi, yerlarining ko'plari orol ekanligi, landshtaftining o'ziga xosligi – ya'ni, unda baland tog'larning, past tekisliklarning, o'rmonzorlarning, yaylovlarning va daryolarning mavjudligi, hayvonot olamining rang-barangligi, daraxt va o'simlik olamining xilma-xilligi, shuningdek fasllar almashishining o'ziga xosligi bu yerlarda qadimdan ishlab chiqarishni tashkil etishning ham o'ziga xos bo'lishini, ular yaratayotgan va yaratajak madaniyat elementlarining ham mazmuni va shaklini o'ziga xos bo'lishligini ta'minlagan sabablardan bo'lib xisoblanadi. Eramizdan avvalgi III - ming yillik o'rtalariga kelib ibtidoiy jamoa yemirilib,

quldorlik munosabatlari shakllana boshladi va quldorlik davlatlari paydo bo'la boshladi. Ishlab chiqarishning o'sa boshlashi bilan hunarmandchilik, kosibchilik, to'qimachilik, kulolchilik, duradgorlik, sangtaroshlik, quruvchilik, bezakchilik kabi bir qancha bevosita madaniyat elementlarini shakllantirishga hissa qo'shadigan faoliyat turlari paydo bo'la boshladi. Bulardan ancha avvalroq buyuk mehnat taqsimotlari bo'lib ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik ajralib chiqqan va bu jarayon davom etayotgan edi. Oqibatda umumiy rivojlanish tezlashgan, mehnat unumdorligi o'sa boshlagan, mehnat qurollari takomillasha boshlagan edi. Bu esa ularning faoliyatida, ijodkor mehnatida, yaratuvchilik ishlarida o'z aksini topa boshlagan edi. Iqtisodiy rivojlanish barcha yunon qabilalarini, davlatlarini sekin-asta yaqinlashtira boshladi. Ularning tillari ham yaqinlasha boshladi. Natijada, insonning ham moddiy, ham ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan va madaniyatning dastlabki va asosiy elementi sifatida turli xil buyumlar, predmetlar, anjomlar, binolar, oziq - ovqatlar, kiyim-kechaklar ishlab chiqarila boshlandi. Shuningdek axloqiy normalar, ta'lim-tarbiya sistemasi, diniy, falsafiy, g'oyaviy dunyoqarashlar sistemasi, madaniy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan ma'naviy-g'oyaviy ustqurmaning boshqa turlari shakllana boshladi. Keng ma'noda madaniyatning barcha elementlari turli ko'rinishlarda shakllana boshladi. Bu jarayonga qadimgi yunonlarning qo'shni mamlakatlar bilan, birinchi navbatda o'zlaridan qadimiy bo'lgan Misr, Bobil, Hind, Xitoy kabi mamlakatlar xalqdari bilan yaqindan muloqotlari ijobiy va foydali ta'sir etdi. Yunonlar bu xalkdardan juda ko'p madaniy meroslarni o'zlashtirdilar va o'zgartirib, boyitib, yunon ruhiga mos qilib, yangitdan yaratdilar. Yunon madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi uning o'z tarixi bilan chambarchas holda borgan.

### **Birinchi masala bo'yicha qisqa xulosalar**

1. Qadimgi Yunon madaniyati tabiiy-tarixiy taraqqiyotning obyektiv va qonuniy natijasi sifatida shakllana boshlagan.
2. Barcha madaniyatlar kabi, yunon madaniyatining shakllanishi ham tarixiylik va vorisiylik prinsiplariga amal qilgan, ya'ni o'zidan oldin o'tgan qo'shni mamlakatlar madaniyatini o'zlashtirgan.
3. Yunon madaniyatiniig shakllana boshlashiga tabiiy-geografik muhit o'z muhrini bosgan. Boshqacha aytsak, qadimgi greklar o'z sharoitidan kelib chiqib va unga tayangan holda o'z madaniyatini yarata boshlaganlar.
4. Qadimgi yunonlar zohiran milliy va lekin botinan umuminsoniy mohiyatga ega madaniyatni yarata boshladilar.

**II-masala.** Qadimgi Yunoniston madaniyati tarixi besh davrga bo'lib o'rganiladi:

1. Egey yoki Krit-miken davri (mil.ol. IP-P ming yilliklar) madaniyati.
2. Gomer davri (mil.ol. XI-IX asrlar) madaniyati.
3. Arxaik davr (mil.ol. VIII-VI asrlar) madaniyati.
4. Klassik davr (mil.ol. V-IV asrlar) madaniyati.
5. Ellinistik davr (mil.ol.IV asrning II yarmi mil. ol.I asrning o'rtasi) madaniyati.

Bu har bir davr o'z mazmuniga va o'ziga xoslikka egadir. Madaniyat hamma davrlarda ham bir xil va bir tekis rivojlanmagan. Uning shakllana boshlash davri, yuqori cho'qqisi va inqiroz davrlari bo'lgan.

Krit-miken davri-eng qadimgi sivilizasiya davri deb ham yuritiladi. Bundan tashqari, dastlabki uch davr ko'pincha *klassik davrgacha bo'lgan davr* degan umumiy nom bilan aytiladi. Bunday holda Yunoniston madaniyati uchta asosiy davrga bo'linadi: klassik davrgacha bo'lgan davr, klassik davr, ellinistik davr.

### **Egey yoki Krit - miken davri** (*mil.ol. IP-P ming yilliklar*)

Qadimgi Yunon madaniyatiniig birinchi davrini Egey yoki Krit - Miken deb atalishining sababi, Egey dengizidagi orol davlatlaridan dastlab topilgan arxeologik kashfiyotlardir. Bu yodgorliklar dastlab Miken va Kritdan topilgan. Egey madaniyatiniig eng gullagan davri er. av. II minginchi yillarga to'g'ri keladi. Bu davrda hashamatli me'morchilik binolari, podsho saroylari, amaliy - dekorativ san'at namunalari topilgan. Bu saroyning tuzilishi, unda ibodatxonaning borligi, ularning o'zaro zina va narvonlar bilan bog'langanligi uning o'ziga xosligini belgilaydi. Saroyda ustunlardan ko'p foydalanilgan. Devoriy suratlarda kritiklarning hayoti, faoliyati aks ettirilgan.

Krit madaniyatida kulolchilnk muhim o'rin egallaydi. Shuningdek,ular toshdan unumli foydalanganlar va san'at asarlari yaratganlar. Mikenada eramizdan avvalgi **XIV - XIII** asrlarda yaratilgan qal'alar, qurg'onlar bizgacha yetib kelgan. Bu qo'rg'on devorlari 5-6 tonna keladigan toshlardan qurilgan bo'lib, qalinligi 6 -10 metr, hatto 17,5 metrgacha bo'lgan, uning ichi bo'sh bo'lib, xazina rolini ham o'tagan.

XIX asrning 70 - yillarida nemis arxeologi Shliman Egey dengizn qirg'oklarida qazuv ishlari olib bordi. Qazuv natijasida yettita shaharni aniqladi.

Yunoniston madaniyati-uzoq taraqqiyot mahsuli bo'lib, Sharq mamlakatlari bilan Egey dengizi bo'ylarida joylashgan yunon qabilalari bilan Bolqon yarim orollarining janubi, Krit orollari va boshqa Egey dengizi orollari, Egey dengizining Osiyo qismi o'zaro munosabatlari natijasida paydo bo'lgan. Bu joylar Miken davlatlari deb nom olgan. Ikkinchi ming yillik oxirida Miken davlatlari Bolqon yarim orol shimolidan bu yerga kelib o'rnashgan va bu yerdagi qabilalarga qarindosh bo'lgan yunon qabilalari tomonidan tor - mor qilindi.

### **Gomer davri madaniyati** (*mil.ol. XI-IX asrlar*)

Gomer davri madaniyati asosan Gomerning va Gesiodning asarlari asosida belgilanadi. Bu davr madaniyatida xudolar xaqidagi miflar asosiy rol o'ynaydi. Yunonlar Gomerni xudolar haqidagi tasavvurlarimizning ijodkori, deb baholagan edilar.

Yunonistonda ko'chish davri (m.o. XI asr) tugashi bilan zodagonlar o'zlarining ijtimoiy-siyosiy tuzilmasini yaratdilar va «Gomer ilohiy davlati»ni barpo qildilar. Bu davlatning tepasiga Zevs tasviri qo'yilgan bo'lib, bu kultni bu yerga kelgan bosqinchilar o'zlari bilan birga olib kelgan edilar. Zevs yerli xudolarga duch kelganda, ularning vazifasini o'ziga olib, siqib chiqardi, boshqa xudolar bilan qo'shilib ketdi va ularning nomlarini va sifatlarini o'ziga oldi. Yana boshqa ba'zi xudolar bilan murosas qilib, birga yashadi. Shuning uchun oldingi xudolar Zevsning ukalari, singillari, bolalari bo'lib koldi. Zevs ba'zi xudolar bilan oila qurdi. Ammo Gomerda ham,

Gesiodda ham xudolar olamning yaratuvchisi emas, o'sha xudolarning o'zlari tug'ilganlar. Qachonlardir ular mavjud bo'lmagan edilar.

### **Arxaik davr madaniyati (mil.ol. VIII-VI asrlar)**

Arxaik davrdagi yunon madaniyati ega bo'lgan xususiyatlar krit-miken davriga va undan keingi mil.ol.XI-IX asrlarga borib taqaladi. Bu madaniyat o'sha vaqtda barcha xo'jalik tarmoqlarida qo'llanilgan qo'l mehnati qurollari bazasida rivojlangan.

Bu davrning dunyoqarashi ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari darajasiga muvofiq bo'lgan. Tabiat hodisalari va ijtimoiy munosabatlar ko'pincha diniy ruhda talqin qilingan.

**Barcha qadimgi madaniyatlar kabi yunon klassik (antik) madaniyatining muxim tarkibiy qismi din bo'lgan.** Din me'morchilikning, tasviriy san'atning, adabiyotning ajoyib namunalari o'z aksini topdi. qadimgi yunon dinining asosiy shakllari arxaik davrdayoq tarkib topgan, uning ildizlari esa eng qadimgi krit-miken davriga va qadimgi sharq ta'sirlariga borib taqaladi.

Yunonlarning tasavvuricha, olam avvalida Xaosdan iborat bo'lgan, Yer-Geya va yer osti olami Tartar xam bo'lgan. Geyadan o'g'li Uran-osmon xudosi kelib chiqqan. Uran bilan Geyadan titan Kronos tug'ilgan va o'z otasi Uranni ag'darib tashlagan.

Bular titanlar- katta xudolar ekan. Kronosdan Aid, Poseydon, Gestiya, Demitra, Gera va Zeve kabi kichik xudolar kelib chiqqan. Zeve boshchiligida kichik xudolar Titanlarni ag'darib tashlab olamni idora qila boshlaganlar. Zeve bosh xudo, xudolar ajdodi, chaqmoqsochar xisoblangan. Uning xotini Gera- osmon ma'budasi va nikox xomiysi bo'lgan. Poseydon- dengiz xudosi, Demitra- xosildorlik ma'mudasi, Gestiya – uy-ro'zg'or ma'budasi, Aid – yer osti olami xudosi xisoblangan.

Zevsning ko'p farzandlari xudolar bo'lgan.

Mil. ol. 776 yildan boshlab Olimpiada shahrida Zevs sharafiga Olimp musobaqalari bo'lgan. viloyati Ioniya (Milet)(Kichik Osiyoning g'arbiy qirg'og'ida)da *naturfilosofiya* rivojlandi. Bu falsafa materialistik falsafa edi. Materializm va obyektiv qonuniyatlarni izlash bu falsafiy oqim uchun harakterli edi. *Fales* (mil.ol. 624 546) hamma narsalarning ibtidosi va asosi suv degan bo'lsa, *Anaksimn* (taxminan mil.ol. 585 525) - havo, *Anaksimandr* (taxminan mil.ol. 611 -546) - (apeyron) cheksizlik, deb qaragan edilar.

Mil.ol. VI asrda Sisiliyada yashagan *Pifagor* va uning izdoshlari, butun borliqning asosi miqdor (son) va miqdor munosabatlaridir, deb hisoblab, matematika, astronomiya va musiqa nazariyasi taraqqiyotiga muhim hissa qo'shdilar.

Mashhur yunon faylasuflaridan *Geraklit* (taxminan mil.ol. 554 – 483 yy.Efes shahrida yashagan) materiyaning asosi olov, degan xulosaga keldi.

**Yunon yozuvi.** Yunon alifbosi mil.ol. IX-VIII asrlarda finikiyaliklar alifbosi asosida yuzaga kelgan. Yunonlar finikiyaliklarning yozuvidan foydalanganlar, lekin uni o'zgartirib, faqat undosh tovushlarni emas, balki unli tovushlarni ham bildiruvchi alifbo tuzganlar. Shunday qilib, ular 24 harfdan iborat yangi yunon alifbosini yaratganlar.

**Adabiyot.** Yangi alifbo va yozuvning yaratilishi yunon adabiyotining rivojida juda muhim qadam bo'lgan edi.

Arxaik davrdagi adabiyotda epik janrlar yetakchi rol o'ynadi. Gomerning "Iliada"si, "Odisseya"si (mil.ol. VIII asr oxiri) buning namunasi. Bu davrda yana Gesiod "Teogoniya" (ya'ni Xudolar shajarasi, unda yunonlarning xudolar va olamning kelib chiqishiga

oid qarashlari bayon qilingan) va "Mehnat va kunlar" dostonlarini yozdi. Ezopning (mil.ol.VI asr) masallari ham yunon madaniyati taraqqiyotida muhim rol o'ynadi.

**San'at.** Arxitektura ham rivojlandi. Mil.ol.VII asrda ba'zi ibodatxonalar xom g'ishtdan qurilgan. Keyinchalik tosh me'morchilik rivojlanib ketadi va u yunon arxitekturasi taraqqiyotining eng oxirigacha davom etib keladi.

Yunonistonda haykaltaroshlik ham eng ibtidoiy shakllardan boshlab rivojlana boradi. Mil.ol.VIII asrda xudolarning yog'och suratlari yasalgan. Yunon rassomchiligi bizgacha binolarning devorlarida yetib kelgan. Tom ma'nodagi kartinalar Italiyaning janubidagi shaharlar vayronalarida, yer osti sag'analarining devorlarida saqlanib qolgan. Yunonlar hatto ilk zamonda ham vazalarga chiroyli gullar solganlarki, bular ham qadimgi rassomlikning namunasi. Mil.ol. VI asrda qora figurali vazalar yasalgan, ya'ni tabiiy qizg'ish tusdagi vazalar ustiga qora lak bilan har xil rasmlar solingan.

### **Klassik davr madaniyati (mil.ol. V-IV asrlar)**

Bu davr Perikl, Suqrot, Aflotun, Arastu, Demokrit, Esxil, Sofokl, Evripid va boshqa qator allomalarning nomlari bilan bog'liq. Bu davrda haykaltaroshlik rivojlanib, haykallarning turli shakllari va turlari yaratildi. Marmar bilan birga bronzadan foydalaniladigan bo'ldi.

Mil.ol. V asrda yunon jamiyatining madaniy mezonlari shakllana boshladi. Ovqat va ichimliklarda mo'tadillik, axloqda tiyqlik, haqiqatgo'ylik, o'z so'ziga sodiqlik, ishda halollik, jismoniy bardoshlilik va boshqa qator axloqiy mezonlarga ko'ra jamiyat odamlarga baho bergan. Insonga hurmat shu tariqa shakllana boshladi

Kos orolida tug'ilgan yunon tabibi Gippokrat (mil. av. 460-375 yil) tibbiyot bilimlarini otasi Geraklitdan o'rganadi. U mashhur tabib bo'lib, tibbiyotning barcha masalalari bilan shug'ullangan va ulug' faylasuf xam bo'lgan. U shogirdlari bilan birga 72 kitobdan iborat «Gippokrat to'plami» nomli tibbiy asar yozib qoldirgan.

**Qadimgi Yunonistonda falsafa.** Arxaik davrda, klassik zamondayoq tabiat va kishilarning faoliyati ustidan olib borilgan kuzatishlarning natijalarini umumlashtirishga intilishning oqibatida falsafiy-estetik fikr ravnaq topdi. Fan sifatida yunon falsafasi paydo bo'lishi jarayonidayoq materializm bilan idealizm o'rtasida boshlangan kurash bu tez va porloq taraqqiyotga ko'maklashdi.

**Antik falsafa** ayni shu paytda yuksak cho'qqiga yetdi. Uchta faylasuf - Sukrot, Aflotun va Arastu antik falsafani yaratdilar.

**Adabiyot.** Quldorlik demokratiyasi rivojlanishi bilan, ayniqsa Afinada, adabiyotning ommaviy turi bo'lmish dramatik tomoshalar taraqqiy qiladi. Bu dramatik tomoshalar esa ommaviy xalq bayramlari asosida tragediyalar va komediyalar shaklida paydo bo'ladi.

Mil. av. VI-IV asrlarda Esxil, Sofokl, Yevripid tragediyalari Aristofan komediyalarini teatrda tomoshabinlar maroq bilan ko'rishgan. Esxilni «tragediya otasi» deb ataganlar. Uning «Zanjirband Prometey», «Forslar» tragediyalari, Sofokolning «Shox Edip», «Antigona» tragediyalari mashhur bo'lgan. Sofokol 120 dan ko'proq tragediya yozgan.

Aristofan «Tinchlik», «Suvoriylar» degan komediyalarida urush voqyealarini va o'sha davrdagi illatlarni tasvirlagan. Bu ijodkorlarni xalq hurmat qilib Afina teatriga xaykallarini o'rnatganlar va «donishmandlik yo'l boshchilari» deb ataganlar.

Butun qadimgi yunon madaniyati singari, tragediya ham mifologiya asosida paydo bo'lgan.

**Arxitektura, haykaltaroshlik, rassomlik.** Qadimgi grek arxitekturasi va umuman tasviriy san'ati, qadimgi grek madaniyatining boshqa elementlari singari, undan keyingi zamonlarning

badiiy taraqqiyotiga ajralmas qism bo'lib mahkam kirib oldi. Ularning elementlari hozirgi vaqtda ham yashamoqda.

Qadimgi yunonlarda me'morchilik, xaykaltaroshlik va rassomchilik Krit-Minen davrlarida vujudga kelib, keyingi davrlarda rivojlanadi va mil. av. V asrda yuqori pog'onaga ko'tariladi.

Afina akropolidagi Parfenon, Erehteyon ibodatxonalari yunon me'morchiligining nodir asarlaridan bo'lib, xozirgacha saqlanib qolgan. Parfenon ustunlari doriy uslubda bo'lsada, tarz-tarovati ioniycha uslubdadir. Uning qarshisidagi Erehteyon ibodatxonasi sof ioniycha uslubda, qiz xaykallar ustun vazifasini bajarib, nafis ishlangan.

Yunon xaykaltaroshligi ham mil. av. V-IV asrlarda yuksak darajada rivojlandi. Xaykaltaroshlar bu davrda odam gavdasining xarakter qilib turgan holatini tasvirlashni bilib olganlar. Miron, Poliklet, Fidiy, Traksitel, Skopas, Lisini kabi xaykaltaroshlar yartagan xaykallar jonli xarakterli xolatda ishlangan. Eramizdan avvalgi V asrda Miron ("Diskobol", "Afina bilan Marsiy"), Poliklet ("Nayzabardor", "Diodumen") va Fidiy (Afina, Zevs haykallari) ayniqsa mashhur xaykaltaroshlar edilar. **Fidiy, Meron, Poliklet** va boshqalar klassik davr *haykaltaroshligiga* asos soldilar.

Qadimgi Gresiyada *rassomlik* keng tarqalgan, lekin afsuski, bizniig zamonimizgacha uning namunalari deyarli saqlanib qolmagan.

Rassomchilikda *Polignopa* (V asr boshlari) va *Apollodora* (V asrning ikkiichi yarmi) yangicha usullarni, syujetlarni olib kirdilar. Klassik davr adabiyotida *tragediya* va *komediya* janri paydo bo'ldi. Esxil (mil.ol. 525-456), Sofokl (taxminan mil.ol. 496-406) va Evripid (mil.ol.485--406) tragediya janriga asos soldilar

**Yunon teatri.** Qadimgi yunon madaniyatining eng ajoyib hodisalaridan biri teatrdir. Teatr yunonchada «tomoshalar joyi» degan ma'noni anglatadi. Keyinchalik qurilgan Yunon teatrlariga 17-25 ming tomoshabin joylashgan.

Doston va afsonalar teatr uchun boy ma'lumot bergan. qadimgi Yunon teatri mil. avv. VI asrlarda qishloq xo'jaligi xomiysi, xudo Dionis sharafiga o'tkaziladigan bayramlar vaqtida ijro etiladigan qo'shiqlar va o'yinlar asosida vujudga kelgan.

#### **Ellinistik davr madaniyati** (mil.ol.IV asrning II yarmi mil. ol.I asrning o'rtasi)

Ellinizm davrida (mil. av. III-II asrlar) madaniyat xilma-xil bo'lib, asosan ilm-fan taraqqiy etdi. Aleksandr Makedonskiy istilo qilgan xududlarga yunon madaniyati kirib borishi bilan birga Yaqin va o'rta Sharq mamlakatlari madaniyatiga uyg'unlashib, madaniyat sintezi yuz berdi. Mamlakatlarni o'zaro aloqalari kengaydi.

Aleksandr Makedonskiy bosib olgan yerlarda yunon madaniyati tarqalgan davr alohida bosqich hisoblanadi. Bu davrdagi madaniyat ellinizm madaniyati deyiladi. Yunon va mahalliy madaniyagning aloqalari yagona ellinistik madaniyat paydo bo'lishiga yordam berdi. Aleksandr Makedonskiy imperiyasi yiqilgandan keyin ham alohida mustaqil davlatlarda ellinistik madaniyat saqlanib qolaverdi (Misr, Salavkiylar davlati, Pergam davlati, Baqtriya, Pontiy shohligi va b.).

Bu davrda ilmiy bilimlar taraqqiy qildi. Arximed (taxminan mil.ol. 287-212), Evklid (taxminan 365-300), Aristarx Samoskiy (mil.ol.320-250)larning kashfiyotlari yuzaga keldi. Ilmiy bilimlarning taraqqiyoti yig'ilgan axborotlarni sistemalashtirishni va saqlashni talab kilardi. Bir qator shaharlarda *kutubxonalar* barpo qilindi. Ulardan eng kattasi Aleksandriyada va Pergamda edi. Filologiyaning grammatika, matn tanqidi, adabiy tanqid sohalari rivojlandi.

Yunon-Makedoniya va Ellinlashgan maxalliy zodagonlar orasida umumyunon tili «Koynе» (umumiy) keng yoyildi. Yangi dunyoqarash falsafiy tus olib kosmopolitizm (dunyofuqorosi) nomi bilan mashxur bo'ldi.

Iskandariyadagi va Sharqiy o'rta dengiz bo'yidagi boshqa shaxar kutubxonalarida Yunoniston va Sharq mamlakatlaridan olib kelingan ilmiy asarlar to'plangan. Iskandariyada teatr, saroy, gimnaziya va mashxur Muzei bo'lgan. Muzeida rasadxona va ulkan kutubxonada 700 mingga yaqin qo'l yozma saqlangan. Shaxar oldidagi orolga 140 metr balandlikdagi mayoq qurilgan. Bu mayoq kemalarning gavanga kirish yo'lini ko'rsatib turardi.

Ellinizm davrida fanlar tizimiga asos solindi. Straton xizmati bilan fizika fani paydo bo'ldi. Yevklid va Arximed matematikani rivojlantirdi. Aristrax astronomiya sohasiga ulkan hissa qo'shdi. U Yer va boshqa planetalar Quyosh atrofida aylanadi degan gipotezani ilgari surdi. Teofrast ( tax.mil.ol. 370-285) faqat faylasufgina emas, balki olim ham edi. U "botanikaning otasi" deb nom chiqargan. Sharq mamlakatlarida yunon me'morlari, xaykaltaroshlar, rassomlar nodir asarlar yaratganlar. Biroq, mil. avv. III-II asrlarda yunon san'atining xususiyatlari o'zgargan. Xukmdorlar saroylari korinfcha uslubdagi ustunlar bilan qurilgan. Tasviriy san'atda odamlarning tashqi qiyofasini va ichki kechinmalarini ko'rsatishga intilishi yangilik edi.

### **Иккинчи масала бўйича қисқа хулосалар**

1. Қадимги Юнон маданияти ўз тарихида бир неча муҳим босқичларни босиб ўтган ва аста-секин мураккаблаша борган.
2. Қадимги Юнон маданияти аввало ишлаб чиқаришнинг, ижтимоий амалиётнинг ва ишлаб чиқариш қуролларининг такомиллашуви асосида ривожланиб борган.
3. Қадимги Юнон маданияти бир неча кўринишда — меҳнат қуроллари, тажриба, фан, техника, кўникма, ижод ва яратувчилик каби шаклларда ривожланган.
4. Маданият санъат билан айниқса унинг архитектура, ҳайкалтарошлик, рассомлик, ҳунармандчилик каби турлари билан боғлиқ ҳолда ривожланган.
5. Қадимги Юнонистонда бадиий адабиёт, айниқса унинг мифология ва у билан қоришган трагедия, комедия жанри, шунингдек уларнинг театрлаштирилиши ривож топган.
6. Маънавий маданият дунёқараш, дин, ахлоқ, мантиқ, фалсафа, идеология кўринишида шаклланган ва ривожлана бошлаган.

**III-masala.** Qadimgi Rim madaniyatining shakllanishiga antik dunyodagi ikki buyuk madaniyat - etrusklar va yunonlar madaniyati an'analari ta'sir ko'rsatdi. Rim ibodatxonalari etrusk ibodatxonalari namunasi bo'yicha qurildi, lotin alifbosi ham etrusklarning alifbosi asosida yaratildi. Yunonlarning ta'siri mil.ol. III asrdan boshlandi. "Odisseya"ning lotinchaga ta'siri Rim she'riyatiga ta'sir ko'rsatdi. Ammo Rim she'riyati tom ma'noda xalq og'zaki ijodidan o'sib chikdi.

Qadimgi Rim tarixi uch davrga bo'linadi:

1. Shohlik davri (mil.ol. VIII - VI asr boshlari).
2. Respublika davri (mil.ol. 510/ 509 - 30 / 27 yillar).
3. Imperiya davri (mil.ol. 30/27 - mil. 476 yillar).



Rim sivilizasiyasining taraqqiyoti Rim shahrining o'sishiga olib keldi, mil.ol. Sh- I asrlarda Rim shaxri aholisi 1 milliondan 1,5 millionga yetgan edi.

Antik davrga oid Rim me'morchiligining noyob namunalari sifatida **Panteon** (hamma xudolarga bag'ishlangan joy)ni ko'rsatish mumkin. Panteon - ibodatxona bo'lib, imperiyadagi ko'plab xalqlarning birligi g'oyasini gavdalandiradigan barcha xudolar uchun qurilgan.

Amfiteatr (yunon. amphit - agrof va hyearron - teatr) tomosha uchun (ko'pincha gladiatorlar jangi uchun) qurilgan inshoot bo'lib, cho'ziq shakldagi maydon bo'lgan va atrofida tomoshabinlar uchun zinaloyalardan iborat o'rindiqlar joylashgan. **Kolizey** eng mashhur amfiteatr bo'lib, 50 ming tomoshabinga mo'ljallangan edi.

Rimda issiq va sovuq suvi bor hammomlar (terma), gimnastika zallari, dam olish xonalari qurilgan. Ko'p shaharlarda 3-6 qavatli uylar qurilgan.

Imperiya davrida Rim shaharlari rejasi anchagina yaxshilangan, chiroyli maydonlarga, yashash uchun qulay bo'lgan uylarga alohida e'tibor berilgan. Neron hukmronligi davrida Rimda yong'in yuz bergan va 14 ta tumandan 10 tasi yonib tugagan. Bu tumanlarda uylar asosan yog'ochdan qurilgan, yo'llar tor edi. Yong'indan keyin imperator shaharni yangi reja bo'yicha - ko'chalari keng, uylarni toshdan, imperator saroyini ham toshdan qilib qurishga farmon berdi.

Imperiya davridagi shaharlarning farqli xususiyatlaridan biri-kommunikasiya vositalarining-tosh ko'priklari, vodoprovodlar,

kanalizasiyalarning borligi edi. Imperiya davrida Rimda II ta vodoprovod bo'lib, ikkitasi hozirgacha ishlaydi. O'sha davrlarda qurilgan yo'llar, ko'priklar hozirgacha xizmat qiladi.

Rimda fan va maorif katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Ta'lim uch bosqichdan iborat edi: boshlang'ich ta'lim, grammatika maktabi va ritorika maktabi. Imperatorlar ritorika maktabi uchun katta mablag' ajratardilar. Barcha talim bosqichlarida o'qish, yozish va hisoblash o'rgatilgan. O'rta maktablarda grammatika muallimlari yunon tili va yettita fan - grammatika, dilektika, ritorika, musiqa, arifmetika, geometriya, astronomiyani o'rgatganlar. Bular qatorida arxitektura va tibbiyot ham o'qitilgan. Oxirgi bosqich oliy ta'lim bo'lib, notqlik san'ati va falsafa o'qitilgan. Mansabdor odam bo'lish uchun va siyosatda ritorikani egallash shart bo'lgan.

Rim ta'lim tizimi yunonlardan namuna olgan holda rivojlandi. Birinchi o'rinda huquq, tillar, adabiyot, tarix, ikkinchi o'rinda matematika turgan edi. Oliy talimda falsafadan ko'ra, notqlikka ko'proq e'tibor berilgan.

Rim, Aleksandriya, Afina, Korfagen shaharlari ilmiy markazlar sifatida faoliyat ko'rsatgan edi. I - II asrlarda Rimda geografik bilimlarga, tibbiyot va tarixga e'tibor berilgan. Strabonning ( mil.ol. 64/ 63 mil. 23/24 yillar), Ptolomey ( I - II asrlar)ning kitoblari yaratildi. Pliniy (I asr) fizik geografiya, botanika, zoologiya, mineralogiyani o'z ichiga olgan "Tabiiy tarix" qomusini yozdi. Tibbiyot rivojlandi: Galen (129- 199 yillar) nafas yo'llari, bosh miya bo'yicha tajribalar o'tkazdi, birinchi bo'lib odam a'zolarining anatomik tuzilishini berdi. Vrachlar tayyorlash uchun maktablar ochildi.

Miloddan oldingi III asrda yunonlar ta'siri ostida Rim adabiyoti paydo bo'ldi. Muarriflar yunon tilida Rim yilnomalarini yozdilar. Jumladan, Siseron (mil.ol.106 - 43 yillar) ning publisistikasi Rim nasrining eng yaxshi namunalari hisoblanadi. Uning 50 dan ortiq nutqlari va notqlik nazariyasiga oid ishlari saqlanib qolgan. Siseronning ijodi Rim adabiyotida "Oltin lotin davri"ni kashf qildi. Bu davrda nasrning go'zal namunalari yaratildi.

Rim *sheriya*ti ham mil.ol. I asrda katta muvaffaqiyatga erishdi. Lukresiy (mil.ol. 96 - 55 yillar) ning "Buyumlarning tabiati haqida" nomli falsafiy poemasi, Gorasiy (mil.ol. 65-8 yillar)ning

satiralari, qasidalari va boshqa she'riy asarlari, Ovidiy (mil.ol. 43 - mil.18 yillar)ning ishqiy she'rlari va maktublari Rim she'riyatiga asos soldi.

Rim teatr san'ati, haykaltaroshlik yunonlarning ta'siri ostida rivojlandi. Ammo materiallar teatr san'atida Rim jamiyatining hayotidan olindi. Haykaltaroshlikda ham bizgacha yetib kelganlari yunonlar ta'siridan holidir. Haykaltaroshlar insonning ichki olamini ko'rsatishga ko'proq e'tibor qaratganlar.

Rimliklarning diniy e'tiqodi dastlab majusiylikka asoslangan edi. Milodiy IV asrda Rim imperiyasi G'arbiy va Sharqiy qismlarga bo'linib ketgandan keyin, masihiylik g'alaba qildi va katolik oqimi hayotga singib bordi.

### **3 - масала бўйича қисқа хулосалар**

1. Рим маданиятини ўрганиш, Рим тарихини ўрганиш билан бирга олиб борилиши керак.
2. Рим маданиятини ўрганишнинг бир неча манбалари, моддий ашёлар, тарихий ва бадиий асарлар бор.
3. Рим маданияти ҳам, ҳамма халқлар маданияти каби ўзининг асл тарихий илдиэларига эга. Унинг бошланиши Италия халқининг келиб чиқишига асос бўлган уруф ва қабилалар маданиятининг шаклланиши билан бошланади.
4. Рим маданиятининг шаклланиши ва ривожланишига Юнон маданиятининг ижобий, самарали таъсири кучли бўлган.
5. Рим маданияти Юнон маданиятига кўп ҳолларда тақлид қилса ҳам, унинг ўзига хослиги, ўз мазмуни ва миллий шакли мавжуд.
6. Рим маданият қадимги Юнон маданияти билан Европа ўрта асрлар маданияти оралиғида кўприклик, воситалик ролини ўтаган.
7. Лотин ёзуви ва тили узоқ асрлар давомида бутун Европада илм тили, черков тили, табобат тили бўлиб хизмат қилди, ҳамон тиббиётда хизмат қилмоқда<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Маъруза режасидаги масалалар бўйича қисқача хулосалар Э. М. Тўхтасиновнинг 2003 йил “Университет” нашриёти томонидан чоп этилган “Антик маданият” номли Маданиятшунослик фанидан ўтилажак икки соатлик маърузалар матнидан олинди.

## Mavzu bo'yicha test savollari

### 1. «Antik davr» madaniyati qanday xususiyatga ega?

- a) aniq fanlar yordamida rivojlangan
- b) antiq davrda madaniyat rivojlanmagan
- v) diniy dunyoqarash bilan bog'liq bo'lgan
- g) davlat boshqaruv jarayoniga bog'liq bo'lgan
- d) amaliy bilimlar natijasidir

### 2. Antik davrda insonlarning amaliy bilimlari nimalarda aks etgan?

- a) shiorlarda
- b) madxiyalarda
- v) xalq og'zaki ijodi va urf-odatlarda
- g) xoreografik qo'shiqlarda
- d) asar va romanlarda

### 3. Antik davr san'atining vujudga kelishidagi asosiy omil nima?

- a) g'oya
- b) insonning mexnat faoliyati
- v) yozuv
- g) tafakkur
- d) mexnat qurollari

### 4. Antik davr yozuvini belgilang?

- a) piktografiya
- b) lotin alifbosi
- v) kirill alifbosi
- g) forsiy yozuv
- d) arab xusnixati

### 5. Ellinizm davrida (mil. av. III-II asrlar) madaniyat xilma-xil bo'lib, asosan nima taraqqiy etdi?

- a) san'at
- b) maorif
- s) ilm-fan
- d) me'morchilik

**6. Yunonlar teatrni nima deyishgan?**

- a) “katta yoshdagilar maktabi”
- b) “donishmandlik maktabi”
- s) “ tomoshagoh”
- d) “hayot ibрати”

**7. Qadimgi yunon mifologiyasida 12 marta jasorat ko’rsatgan yovuzlikni yenguvchi obrazni aniqlang.**

- a) Yason
- b) Axillis
- s) Gerakl
- d) Gektor

**8. Qadimgi Rim madaniyatini rivojida qaysi qabilalar ta’sir ko’rsatgan?**

- a) xindlar
- b) yunonlar
- v) italiklar
- g) etrusklar
- d) bobilliklar

**9. Yetti mo’jizaning biri «Zevs» xaykali qayerda o’rnatilgan?**

- a) Peloponnesdagi ibodatxonada
- b) Spartadagi ibodatxonada
- v) Apalon ibodatxonasida
- g) Argos ibodatxonasida
- d) Olimpiya ibodatxonasida

**10. Qadimgi Rimda Oliy ta’limda qaysi fanga ko’proq e’tibor berilgan?**

- a) Falsafa
- b) Matematika
- s) Notiqlik

d) astronomiya

**11. Lotin alifbosi kimlarning alifbosi asosida yaratildi?**

a) finikiyaliklarning

b) etrusklarning

s) yunonlarning

d) misrliklarning

**12. “Buyumlarning tabiati haqida” nomli falsafiy poemaning muallifi kim?**

a) Siseron



b) Lukresiy Kar


s) Ovidiy Nazon

d) Vergeliy


**Mustaqil ta’lim mavzulari**

1. “Gomer” masalasi.
2. Qadimgi Yunonistonda falsafa.
3. Qadimgi Yunonistonda klassik davr adabiyoti.
4. Qadimgi Yunon me’morчилиги.
5. Qadimgi Yunoniston rassomчилиги.
6. Qadimgi Yunon haykaltaroshiлиги.
7. Qadimgi Yunoniston teatri.
8. Ellinizm davrida ilm-fan taraqqiyoti.
9. Imperiya davridagi Rim shaharsozligining o’ziga xos xususiyatlari.
10. Qadimgi Rim adabiyoti.
11. Qadimgi Rim haykaltaroshiлиги.
12. Qadimgi Rim me’morчилиги.
13. Qadimgi Rim adabiyoti.
14. Rimda fan va maorif.






1-o'quv topshiriq




Qadimgi Yunon va Rim olimlarining ilm-fanga qo'shgan hissalarini, ular amalga ilmiy kashfiyotlarning mazmuni

Bilaman	Bilishni hoalayman	Bildim






1. Suqrot. (mil. av. 447-399 Afina)





Jamiyat barcha a'zolarining odil jamiyatdagi qonunlarga bo'ysinishi ijtimoiy taraqqiyotning asosiy garovidir.





Aflotunning ideal davlati.

- yaxshilikning adolatli boshqaruvi
- tarbiyaning muhim o'rin tutishi
- ayollar va erkaklar tengligi


“Davlat” asarida “Har bir kishi o’z ehtiyojini o’zi qondira olmaydi, chunki u ko’p narsaga ehtiyoj sezadi”.



Arestotel (er.av. 384-322 y)




Siyosat – kishilarni yaratmaydi, ularni tabiat qanday yaratgan bo'lsa shunday qabul qilib oladi.




Inson

“Siyosat” asarida “.... inson o’z tabiatiga ko’ra siyosiy mavjudotdir”.



7-ilova



Qadimgi Rim madaniyatining davrlari

Shohlik davri(mil.ol. VIII – VI asr boshlari).

Respublika davri (mil.ol. 510/ 509 - 30 / 27 yillar).

Imperiya davri (mil.ol. 30/27 - mil. 476 yillar ).

Qadimgi Rim she'riyatiga asos solganlar

**Lukretsiy (mil.ol.  
96 – 55)**


“Buyumlarning tabiati haqida”  
nomli falsafiy poemasi

**Goratsiy (mil.ol. 65-  
8 yillar)**

Satiralari, qasidalari va  
boshqa she'riy asarlari

**Ovidiy (mil.ol. 43 -  
mil.18 yillar)**


Ishqiy she'rlari va maktublari  
Rim she'riyatiga asos soldi.





FSMU jadvalini t o'ldiring

Anti madaniyatning o'ziga xos xususiyatlarini, Sharq a n'aviy madaniyatidan va diniy madaniyatdan farqlari bu.....	
F – fikringizni bayon eting	
S – fikringizni bayoniga biron sabab ko'rsating	
M – ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi (isbotlovchi) misol ko'rsating	
U – fikringizni umumlashtiring	



## Izohli lug'at - glossariy

**Agora** - Qadimgi Yunoniston shaharlarida xalq yig'ini o'tkaziladigan joy, markaziy maydon.

**Akropol** – yunon shaharlarining muhofazalangan va balandlikda joylashgan qismi, yuqori shahar.

**Gomer** – yunon shoiri, “Iliada” va “Odisseya” dostonlarining muallifi. Taxminan, mil.avv. 12-asr bilan 7-asrlar oralig'ida yashab o'tgan.

**Kapitel** – (lot.capitellum – kallak) - kolonna, ustunning tepa bezatilgan qismi.

**Kolizey, Kolosse** – (lot.colossus – ulkan) – Qadimgi Rimdagi me'moriy yodgorlik (mil. 75-80 yillar). Imperator Tit qurdirgan. Keyinchalik Flaviy amfiteatri nomi bilan mashhur bo'lgan.

**Kolonna** – (lot.columna – to'g'ri) – bino tomini ko'tarib turishga xizmat qiladigan, ko'ndalang kesimi aylana shakldagi bino qurilmasi, me'moriy orderlarning ishlov berilgan tik tayanch qismi, ustun.

**Komediya** (yun.komodia – xushchaqchaq olomon) – hodisa, voqeya va xususiyatlar kulgili ko'rsatiladigan drama turi.

**Olimpiya** – Elida (Peloponnesning shim.- g'arbiy qismi)dagi yunonlar shahri; Zevs sajdagohi (muqaddas Altis o'rmonzori).

**Panteon** – (yun.pantheon – ibodatxona) – Qadimgi Rimda “barcha xudolar ibodatxonasi” (2-asr).

**Polis** – (yun.polis, lot. civitas) – shahar-davlat. Yunoniston va qadimgi Italiyada jamiyat va davlatni ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tashkil etishning alohida shakli.

**Respublika** – (yun.polis, lot. respublic, res – ish va publicus – ijtimoiy, umumxalq) – davlat boshqaruvi shakli, unda barcha davlat hokimiyati organlari saylab qo'yiladi yoki umummilliy vakolatli muassasalar (parlamentlar) tomonidan shakllantiriladi, fuqarolar esa shaxsiy va siyosiy huquqlarga ega bo'ladilar.

**Forum** – (lot.forum) – qadimgi Rimda siyosiy hayotning markazi –jamoat maydoni.

**Sirk** – (lot.circus –doira, aylana) – san'at turi. Akrobatika, gimnastika, ekvilibistika, klounada, jonglyorlik, polvonlik, illyuzionizm, ot o'yinlari, dorbozlik, hayvon o'rgatish kabi janrlarni o'z ichiga oladi.